RAPS EKINING O‘SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIGA O‘G‘ITLASHNING AGRONOMIK AHAMIYATI

***Baxramova Nilufar Nazarovna**, q.x.f.f.d., k.i.t*
Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya: *Maqolada moyli raps ekining kelib chiqishi, biologiyasi, morfologiyasi va moyliligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Raps, urug‘, moy, namlik, harorat, unuvchanlik, tup soni, o‘simlik.*

Аннотация: *В статье приведены сведения о происхождении, биологии, морфологии и масличности рапса.*

Ключевые слова: *Рапс, семена, масло, влажност, ҳарорат, температура, плодородие, количество кустов, растение.*

Abstract: *The article provides information on the origin, biology, morphology and oiliness of oilseed rapeseed.*

Key words: *Rapeseed, seeds, oil, moisture, temperature, fertility, number of bushes, plant.*

Hozirgi kunda xorijdan keladigan urug‘larni respublikaga kirib kelishini kamaytirish, import o‘rnini bosuvchi standart talablarga javob beradigan yangi noan’anaviy moyli ekinlarni yetishtirish, ulardan o‘simlik moyi olish jarayonlarini amalga oshirish lozim. Shunday ekinlar biri bu raps ekini hisoblanadi. Raps ekini qimmatbaho moyli va ozuqa ekini bo‘lib, undan yuqori sifatli o‘simlik moyi hamda chorva hayvonlari uchun oqsilli ozuqa olinadi.

Raps ekining ikki turi mavjud kuzgi va bahorgi. Kuzgi raps mo‘tadil iqlim mintaqasida ekiladi, namsevar o‘simlik, unumdor yerda yaxshi o‘sadi. Raps uchun biologik minimal harorat +5°C [1; 248-b]. Bahorgi raps o‘simligini

yetishtirish uchun ekish muddati aprel oyining uchinchi o‘n kunligida, ekish me’yori 2,5 million dona (6 kg/ga) dan ekiladi.[3; 17-23-b].

Rapsning urug‘ hosili yuqori bo‘lib, gektaridan 30-40 sentnergacha bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari urug‘ tarkibida 45-48 foiz miqdorida moy va 22-25 foiz oqsil mavjud.

Raps o‘simligini ko‘k massa uchun ekilganda gullash davriga kelib o‘rib olinganda gektaridan 400-500 sentnerdan ko‘k massa olinishi mumkin. Ko‘k massasi tarkibida 3-4 foizgacha oqsil bo‘ladi. Urug‘idan moy olingandan keyingi qoldiq kunjarasi yuqori oqsilli bo‘lib, chorva hayvonlari uchun sifatli, to‘yimli ozuqa hisoblanadi. Uning kunjarasini soya kunjarasiga tenglashtirish mumkin.

Raps o‘simligi o‘sish jarayonida tuproqdan ozuqa moddalarini tez va ko‘p miqdorda o‘zlashtiradi. Lekin shunga qaramay, u tuproqda azot to‘plash yoki uni samarali saqlash xususiyatiga unchalik ega emas. Shuningdek, rapsga berilgan azot o‘g‘iti donli ekinlarga qaraganda kamroq samara beradi. Ya’ni, bir xil miqdorda azot berilganda, rapsning urug‘ hosili donli ekinlarnikiga nisbatan taxminan ikki baravar kam bo‘ladi [5; 60]. Shuning uchun raps tomonidan azot va boshqa ozuqa elementlaridan foydalanish samaradorligini oshirish agronomik, ekologik va iqtisodiy jihatdan ushbu ekinning raqobatbardoshligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega [4; 36-38].

O‘rganilgan adabiyotlar tahlili asosida shunday xulosa qilish mumkinki raps o‘simligi Qashqadaryo viloyati sharoiti uchun moslasha oladigan o‘simlik hisoblanadi.

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutida ham noan’anaviy qishloq xo‘jaligi ekinlarini mahalliylashtirish, yetishtirish agrotexnologiyasini joriy qilish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilib, jumladan raps yetishtirish bo‘yicha dala tajribalarida turli o‘g‘itlash me’yorlarning ta’siri o‘rganilmoqda.

Fenologik natijalarga ko‘ra, raps ekining o‘g‘itlash me’yorlar ta’sirida urug‘larining unib chiqishi, birinchi uch barg hosil qilishi va shonalash fazalari

o‘rtasida farq kuzatilmagan bo‘lsada, gullash fazasi boshlanishida azotli mineral o‘g‘itlar me’yori hamda ekinning irsiy xususiyatlari o‘z ta’siri kuzatilgan.

Gullash fazasi boshlanishi davriga azotli o‘g‘itlar bilan oziqlanish me’yorining ta’siri tahlil qilinganda, nazorat variantda raps ekini 4 aprel sanasida, quzoqlash va dukaklash fazasi boshlanishi davriga azotli o‘g‘itlar bilan oziqlanish me’yorining ta’siri tahlil qilinganda, nazorat variantda raps ekini dukkaklash fazasi 17 aprel sanasida aniqlangan.



To‘la pishish sanasi boshlanishi davriga azotli o‘g‘itlar bilan oziqlanish me’yorining ta’siri tahlil qilinganda, nazorat variantda raps ekini 26 may sanasida kuzatilgan.

Tajribalarda gektariga 30 kg dan 90 kg/ga cha azotli o‘g‘itlar bilan oziqlantirilgan variantlarda gullash fazasining bir biriga nisbatan farq kuzatilmadi. Demak raps ekining o‘sish-rivojlanishi uchun tuproqda oziqa moddalarining etarli darajada bo‘lishi – rivojlanish fazalarining optimal kechishini, aksincha tuproqda oziqa elementlarining kam bo‘lishi rivojlanish fazalarining kechikishiga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Шашко, Д.И. Агроклиматические ресурсы СССР. Л.: Гидрометиздат, 1985. 248 с.

2. Atabaeva X.N., Xudayqulov J.B. O‘simlikshunoslik. Toshkent-2018. - 356 b.

3. Дубровина О. А., Зубкова Т. В., Виноградов Д. В. Накопление микроэлементов растениями ярового рапса при использовании куриного помета и цеолита. //Вестник Рязанского государственного агротехнологического университета им. ПА Костычева. – 2020. – №. 4 (48). – С. 17-23.

4. Bouchet A.-S., Laperche A., Bissuel-Belaygue C., Snowdon R., Nesi N., Stahl A. Nitrogen use efficiency in rapeseed. A review. Agronomy for Sustainable Development. 2016, P 36-38.

5. Sylvester-Bradley R., Kindred D.R. Analysing nitrogen responses of cereals to prioritize routes to the improvement of nitrogen use efficiency. Journal of Experimental Botany. 2009, P 60.